

## SAMARQAND-SHARQNING "TONG YULDUZI"

*Xudoyberdieva Dilnoza Azizmurodovna.**Ahrorova Madina Rahmatovna**O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti*

+998 33 982 40 02

**Annotatsiya:**

Mustaqil O'zbekistonning yuragi bo'l mish sharq durdonasi Samarqand hisoblanadi. Samarqand viloyati O'zbekisnondagi arxeologik manbaalar, ziyoratgohlar, muqaddas qadamjohlar aytaylik, jamiyki tarixda ildiz otgan voqealar aynan Samarqandda uchraydi. Misol tariqasida aytish mumkinki, O'zbekistonda eng ko'p arxeologik va moddiy manbalar aynan shu yerda uchraydi. Bu o'lka haqida gapirar ekanmiz, nihoyatda uzoq o't mish tarixi ko'z oldimizda gavdalaniadi. Chunki, bu qadimi qadamjoda ming yillar o'zbek xalqining tarix zarvaraqlari sado berib turadi. Samarqand Respublikamizdagи nihoyat ilg'or viloyat hisodlanadi. Aynan shu tarixiy makonda 2750 tadan ziyod yodgorliklar mavjud. Ushbu maqolada nima uchun Samarqand sharqning "Tong yulduzi" ekanini turli tarixiy manbaalar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** "Yetti iqlim", Samarkent, Istahriy, So'zangaron, Afrosiyob, Himyariy.

**"УТРЕННЯЯ ЗВЕЗДА" САМАРКАНД-ВОСТОК**

Самарканд – жемчужина востока, сердце независимого Узбекистана. Скажем, археологические источники, святыни, святыни Самаркандской области, Узбекиснон, в общем, события, уходящие корнями в историю, можно найти в Самарканде. В качестве примера можно сказать, что здесь находится наибольшее количество археологических и материальных источников в Узбекистане. Когда мы говорим об этой стране, перед нашими глазами воплощается история очень далекого прошлого. Потому что история узбекского народа звучит в этом древнем месте на протяжении тысячелетий. Самарканд считается самым развитым регионом нашей республики, в этом историческом месте насчитывается более 2750 памятников. В данной статье на основе различных исторических источников объясняется, почему Самарканд является «Утренней звездой» Востока.

**Ключевые слова:** "Yetti iqlim", Samarkent, Istahriy, So'zangaron, Afrosiyob, Himyariy.

**"MORNING STAR" OF SAMARKAND-EAST**

Samarkand is the jewel of the east, the heart of independent Uzbekistan. Let's say the archeological sources, shrines, holy sites in Samarkand region, Uzbekisnon, in general, events rooted in history can be found in Samarkand. As an example, it can be

said that the largest number of archaeological and material sources in Uzbekistan can be found here. When we talk about this country, the history of a very long past is embodied before our eyes. Because the history of the Uzbek people has been echoing in this ancient place for thousands of years. Samarkand is considered to be the most advanced region in our Republic. There are more than 2750 monuments in this historical place. This article explains why Samarkand is the "Morning Star" of the East based on various historical sources.

**Key words:** Yetti iqlim”, Samarkent, Istahriy, So’zangaron, Afrosiyob, Himyariy.

Samarqand shahrining “Samarqand”atalishida bir nechta sabablar keltirilgan.

Birinchi sabab:”Burboni Qote”kitobida shunday keltiriladiki, Samar isimli bir kishi atrofiga o’z qavmini to’plab shu hududga joylashgan edi. Shu sababdan ayrim manbalarda yozilishicha, bu joyning nomi dastlab shu insonning nomi bilan bog’lanib “Samarkent” deya (Kent-sug’d tilidan olingan bo’lib, “shahar”degan manoni bildiradi) atalgan.Vaxt o’tib arab qo’shinlari VII asrlarda bu yerlarni o’z tillariga moslashtirib „Samarqand” deb ataganlar va shundan buyon bu qadimiy maskan shu nom bilan atalib kelinmoqda.

Ikkinci sabab: „Masolik ul mamolik”asarida shunday yoziladi: Samarboqiy ismli bir xon bo’lib, Farg’ona, Qoshg’ar tomonlardan kelib bu zamin to’g’risida dushmanlik niyatida bu joyda bo’lgan ekan. Shahar devori va uni atrofini qazib, buzib tashlanadi. Shu boisdan bu umrboqiy shaharning nomi „Samar qozdi”deb yuritiladi. Forslarning bosqinidan so’ng ular bu yerni „Samarqand” deya atay boshlaydilar. Ulardan so’ng arablar ham hukmronlikni olib boradilar va bu viloyatni „Samarqand” “deya forslar kabi atay boshlaydilar.

Uchinchi sabab: Abu Jafar Muhammad ibn Jarir Forobiy tomonidan yozilgan “Tarixi Forobiy”asarida keltiriladiki: Samar ismli bir xon bu viloyatni qurdiradi. Boshida „Qand”degan turk aymog’i bilan bu yerda hukmronlik qilishadi. Shu „Samar”va „Qand” atamalari birlashib bu yer „Samarqand”deya nom oladi. Keyinroq ma’lumotlarga ko’ra arab qo’shinlari bu yerni bosib oladi va „Samarqand”deya nomlaydilar.

To’rtinchi sabab: Ayrim xalqdan xalqqa ko’chgan ma’lumotlarga qaraganda bu shaharning bir joyida Samar degan kishi buloq qaziysi va usha yerdagi mahalliy xalqni shu suv bilan ta’minlaydi hamda bu yerga yon atrofdan odamlar ko’chib keladi va bu yerni xalq „Samarqand”deb ataydi. Mahalliy xalq o’z tilida bu joyni „Samarqand”deya atashadi.

„Haft iqlim” kitobida shunday yoziladi:” Yamanlik Tubbai maliklaridan Samar isimli bir kishi bu shaharning devorini buzadi. Arablarning bosqinidan so’ng bu o’lkani “Samarqand” nomi bilan mashhur bo’ladi.

Samarqandda hozir ham ko’p millatli xalqlar birgalikda tinch-totuv yashab kelmoqda. Shu nuqtai nazardan Samarqandda muqim tojiklri ham massasi katta, ya’ni tojiklar ham anchagina. Bu xalqni og’zaki rivoyatlarida shunday aytildi: “Samar ismli shahzoda Samarqandga kelganida, bu shaharning havosi tozaligidan, go’zal tabiatidan va oqar suvlarining shirinligidan “qand”, ya’ni Samarning “qand shahri” deb nom beradi.

Samrqand qo’rg’onining ikkinchi imorati Tubbaidandir. Malik Tubba’ Yaman va Arabistonga podshohlik qiladi. Bu yerga yurishlar qilib shaharni qo’lga oladi.

Abu Tohirxojaning “Samariya” asarida bu shaharda birinchi bo’lib devoriy qal’a qurdirgan shaxs Iskandardandur (Aleksandr Makedonskiy Islom olamida “Iskandar” deb tilga olinadi) deya keltiriladi. Aytishlaricha Malik Iskandar shaharni atrofini o’rab devor qurdiradi va bu devor urush vaqtlarida aholini himoya qiladi. Tashqaridan kelgan xavf- xatarga xalq bir tan bir jon bo’lib, kurashadi. Bu devorni „Qiyomat devori” deb ham ataydilar. Shu devor sabab el o’z tinchligini saqlagan.

Firdavsiyning „Shohnoma” asarida yoziladiki : “Faridun o’z yurtini uch o’g’liga taqsimlab beradi: Hindistonni Salimga, Turonni Turga, Eronni Erajga topshiradi. Tur bilan Erajni davlatlarining sarhadi Jayhum deb ataluvchi hozirgi Sirdaryoni chegara deb oladilar. Tur o’zi uchun munosib joy qal’a solishga izlab yurganda Samarqand shahri bo’lgan joyda devor va qal’a izlarini topadi. Shu yerga yangi bog’lar qurdiradi. Tur Eraj o’g’li Manuchehrni ham yengib Turon yurtini o’z qo’lga kirgizadi. Samarqandni poytaxti qilib belgilaydi”. Bejizga emaski O’zbekistonda “Afrosiyob tezyurar poezdi” yo’lga qo’yilgan. Afrosiyob aynan “Shohnoma” asarida keltirilgan.<sup>1</sup>

Samarqand shahrining ob-havosi subtropik bo’lib, juda mo’tadil hisoblanadi. U to’rt faslda ham go’zal va betakrordir. Uning bog’-rog’lari insonga bir olam zavq bag’ishlaydi. Bahorda havosi mo’tadil, qishda u qadar ham sovuq bo’lmaydi. Shu sababdan ham bu zamanni „Samarqandi Firdavs monand” ya’ni, Jannatga o’xshash joy deb ta’rif beradilar. Bu yerda sayyoohlarning qiziqlishi juda baland.

<sup>1</sup> Абулқосим Фирдавсий “Шоҳнома” ТОШКЕНТ, ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1984. 5-bet

Abu Tohirxo'janing "Samariya" asarida quydagi ma'lumot yozilgan: "Siyahob yaqinida bo'lган „Banda xotin” mozorining pastligida bir buloq bor, uning suvini qutlug' biladilar.<sup>2</sup>

Чашма ки мечӯшад аз ин хокдон,  
Ашки муқимон тайи хок дон.

Ma`nosi:

Bu tuproqdan qaynab chiqqan buloqni,  
Tuproq ostidagilarning ko'z Yoshi deb bil.

Abu Tohirxojaning "Samariya" asarida Shayx Mansur Moturudiy mazori Samarqand shahrning kunchiqar tomonida joylashganini o'z asarida ta'kidlab o'tadi. Asarda aytib o'tilganki, shayxning Moturid qishlog'ida bir bog'i bo'lgan ekan va bog'dagi daraxt nihollarini o'z qo'li bilan ekkan emish.

Samarqand haqida ko'plab tarixiy manbalar va ma'lumotlar mavjud. Ko'p olim va sayyoohlар bu diyor haqida azaldan to hozirgacha qiziqib kelishmoqda. Ayniqsa musulmon olimu sayyoohlari masalan:Ibin Havqal Istanriy,Ibin Battuta,Ibin Arabshoh va g'arb geograf va olimlari Hermen Vamberiy,Klavixo,Logofet va boshqalar bu diyor haqida kitoblarda o'qib o'ko'zlari bilan ko'rib bunga ishonch hosil qilishgan,kitoblar yozishgan. Istanriyning "Kitab al-Masalik Val-Mamalik" asarida shunday yozilgan:Istanriyiriyning so'zi:"Samarqandda yo'lovchilar uchun devoriga muzdek suvli idish osib qo'yilmagan biror mehmonxona, bosh ko'cha, mahalla yoki odamlar yig'iladigan joyni ko'rmadim".

"Samarqandda bo'lган vaxtimda u yerda fitna qo'zg'aldi.Kesh darvozasi yoqib yuborildi.Peshtoqida himyariy tilida yozuv bitilgan temir parcham bor edi. Darvozani Abul-Muzaffar Muhammad ibn Luqmon ibn Nasr ibn Ahmad ibn Asad avvalgidek temirdan,biroq yozuvsiz tikladi"-deydi.

Sharqning mashhur qimmatli ma'lumotlariga ega kitobi "Tarixi nofe'iy"(Foydali tarix)Muhammad Ali Baljuvoniy asarida quydagi ma'lumotlar keltirilgan."Bu shaharda qirqa yaqin madrasa va qorixona mavjud.Mashhur madrasalardan Amir Temur madrasini tilga olish mumkin.Uni Bibixonim madrasasi deydilar.Ikkinchisi- Mirzo Ulug'bek madrasasi.Uchinchisi-Sherdor .To'rtinchisi-Tillakori Jome' madrasasi bu ikkala madrasani Yalangto'sh Bahodir bino qilgan"deb,ta'kidlab o'tgan Baljuvoniy.<sup>3</sup>

<sup>2</sup> Абу Тохирхожа Самарқандий "Самария" 23-бет.

<sup>3</sup> Муҳаммад Али Балжувоний "Тарихи нофей" (фойдали тарих) "Академия" нашриёти. Тошкент-2001. 19 бет

O'zbekistondagi tarixda mavjud bo'lgan davlatlardan o'sha davlat va shaharning o'z "darvozasi" bo'lgan.Baljuvoniyning so'zlariga ko'ra: Bu muazzam diyorning oltita darvozasi mavjud bo'lib, ularning qoldiqlari hozir ham ko'zga tashlanadi.Bular quyidagilar:

- 1.Darvozai Ohanin(Hazrati Shoh),
- 2.Qalandarxona,
- 3.So'zangaron,
- 4.Firo'zkor(Hoja Ahror),
- 5.Qarshi va Buxoro,
- 6.Poy Kubok darvozasi (Motrud)qishlog'ida joylashgan.

Olimning yana bitta muhim ma'lumoti o'z asarida badiiy talqinda ta'rif berib o'tilgan:"Dahbedi sharif yaqinda hadis ilmi mujtahidlaridan biri yotgandir.Ul janobning ismlari Muhammad ibn Muhammad bin Ismoil al-Buxoriydir."Sahihi Buxoriy" nomi bilan mashhur bo'lganlar.Ul kishining qabrlari Xartang qishlog'ida joylashgandir".<sup>4</sup>

Samarqanddagi qabriston va diniy yodgorliklar O'zbekistonning boshqa hech joyida bu shaharday ko'p songa ega emas.Nafaqat islomga oid yodgorliklar balki, Zardushtiy va Yahudiylarga oid qadamjoylar ham bisyor. Masalan:Afrosiyob qo'rg'onida Zardusht diniga oid dafn marosimlari qabr qoldiqlari (Sarkofaklar), Doniyol payg'ambar qabri (Doniyol payg'ambar Yahudiylar payg'ambari bo'lib, Amir Temur davrida bu zotning xoki va qabr suyaklari Erondan olib kelinib dafn etilgan.Hayratlanarlisi shundaki bu qabirning uzunligi 16-18 metrni tashkil etadi.Yana o'sha atrofda yahudiylar qabristoni mavjud.

Abu Tohirxojaning "Samariya" asarida qiziq ma'lumot keltirilgan: "Hazrat hoja Is'hoq Xatloniy mozori Samarqand muzofotiga qarashli tog'da joylashgandir.Uning shunday ataluvchi sababi ushbu tog'da Fon deyilgan bir qishloqcha bor ekan.Hazrat Hoja Is'hoq Sayid Ali Hamadoniyning xalifalaridan bo'lib,u esa Shayx Najmuddin Kubroning o'rribosarlaridan ekan. Mana shu Fon tog'ining o'rtasida bir g'or bor bo'lib, xoha shu g'or eshidiga o'tirgan va qutlug' gavdasi ko'milmasdan yalang'och turibdi,to kindigigacha kabo'tarlarning qanot va parlari bilan berkitilgan. Bu g'orning shiftidan tomchilab suv oqadi va bir necha qadam g'orning ichkarisiga oqib toshga aylanadi. Undan ko'ngil ochadigan va ruhni

<sup>4</sup> Истахрий "КИТОБ АЛ-МАСАЛИК ВАЛ-МАМАЛИК" (йўллар ва ўлкалар китоби). Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти давлат корхонаси.Тошкент-2019. 21-22 betlar

tozalaydigan shabbodalar esib turishini aytib o'tadilar. Hoja g'orining eshigi yonida bir gul bor ekan,u yiliga ikki marotiba qizil rangda gullarkan.Uning ajib xususiyati shundaki go'r eshigini qancha tosh va loy bilan berkitsalar ham, qaytadan shu yerda sabzasiz ochilar ekan. Hoja Is'hoq mozori bilan Samarcand shahrining orasi 160 chaqirimni tashkil etadi" deb ta'kidlab o'tilgan.

Aytish joizki, mazkur qadamjoylar badiiy tilda aytkanda ko'plab tarixiy voqealar guvohihamdir.Chunki bu tarixiy yodgorliklar butun islom olamining sivilizatsiya taraqqiyotida muhim rishta bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Hozirgi zamonda "turizm madaniyati" shakllanib mukammallahib bormoqda. Aynan Samarcand bu sohada katta manbaa desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qadim zamonlardan ham iqtisodiy, ham ma'daniy yo'nalishda "Buyuk Ipak Yo'li" Osiyo xalqlarida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Chunonchi,bu iqtisodiy yo'l tarixdan ma'lumki boshlanish manbayi sharqdan ya'ni, Xitoydan boshlanadi. Aynan O'zbekiston "Buyuk Ipak Yo'li" chorrahasida joylashgan bo'lib, aynan Samarcanda yaqin joyga kelib bu iqtisodiy yo'l ikki qismga bo'linadi. Biroq bu yo'l faqat shu joydagina ikki qisimga bo'linadi. Bu chorrahada joylashgan Sharqning o'sha davrdagi eng katta bozorlari joylashgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa o'rnila aytishimiz mumkinki Samarcand agar quyosh sharqdan chiqsa,demak tong otishi ham sharqda yuz beradi.Ya'ni insoniyat sivilizatsiyasi ham aynan sharqdan boshlangan. Bu moziy shahar ham ilim, ham madaniyat va jamiyki Sharqdagi sivilizatsiyaga aloqdar nimaiki bo'lsa, bu bizning "Tong yulduzimiz" Samarcandda mujassamdir.

### Foydalilanigan adabiyotlar

- 1.Абу Тохирхожа Самарқандий «Самария».
- 2.Истахрий «Китаб ал-масалик вал-мамалик» (Йуллар ва улкалар китоби).Узбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти давлат корхонаси Тошкент-2019.
- 3.Мухаммад Али Балжувоний. «ТАРИХИ НОФЕЙЙ» (Фойдали тарих). «Академия» нашриёти Тошкент-2001.
- 4.Ўтамиш Ҳожи ибн Муҳаммад Дўстий “Ўтамиш Ҳожи тарихи” (XVI асрга оид туркий тилда ёзилган тарихий манба).ТОШКЕНТ «O'ZBEKISTON”2009.
- 5.Анвар Қандахоров “БУХОРО ХОНЛИГИ ВА УНДА КАРМАНАЛИК ШАЙХЛАР ФАОЛИЯТИ” монография “Tafakkur qanoti” nashriyoti,ТОШКЕНТ-2018.
- 6.Абулкосим Фирдавсий “Шоҳнома”.